



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARINING XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI

Abdullayeva Ma'rifat Erkinbayevna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

marifatabdullaeva5@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada byudjet tashkilotlarida, xususan, davlat ta'lim muassasalarida xarajatlar hisobini tashkil etish va yuritish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda amaldagi buxgalteriya hisobi tizimi, xarajatlarni tasniflash tamoyillari hamda hisob-kitob jarayonida uchraydigan muammolar ochib beriladi. Shuningdek, xarajatlar hisobini takomillashtirishga doir zamonaviy yondashuvlar, jumladan raqamlashtirish, avtomatlashtirish va moliyaviy nazoratni kuchaytirish masalalari bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, avtomatlashtirish, moliyaviy nazorat, tendensiya, klasterlash, innovatsion faoliyat.

Abstract: This article analyzes the processes of organizing and maintaining cost accounting in budgetary organizations, in particular, in state educational institutions. The study reveals the current accounting system, the principles of cost classification, and the problems encountered in the accounting process. It also develops scientifically based recommendations on modern approaches to improving cost accounting, including digitization, automation, and strengthening financial control.

Keywords: digitization, automation, financial control, trend, clustering, innovative activity.

Ta'lim doim rivojlanib, yangilanib boradigan jarayon. Sifatli ta'lim olish odamlarning turmush sharoitini yaxshilash va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga zamin yaratadi. Ta'limning qulayligi va sifati masalalari dunyoning barcha davlatlari strategik rivojlanish dasturlariga kiritilgan, chunki davlat aholining o'zini o'zi anglash imkoniyatlari uchun ta'lim muhitini yaratish orqali mamlakatda moddiy farovonlik va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, inson kapitalini oshirishga hissa qo'shadi, o'z o'rnida, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yuksaltiradi va xalqaro maydonda raqobatdosh ustunlikni yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlangan. Savodsizlikka barham berish va barcha fuqarolar uchun arzon ta'limni ta'minlashda katta muvaffaqiyatlarga erishgan O'zbekiston, ta'limni davlat tomonidan moliyalashtirishning ustunligini saqlab kelmoqda, bu shubhasiz ijobiy omildir.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi bo'lib, respublika qonunchiligiga muvofiq umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



negizida oliy ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

- milliy istiqlol g'oyasi asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;
- ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- bilimlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- oliy ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi.

Hozirgi vaqtda mintaqalarda mavjud fan, ishlab chiqarish va ta'lim sohalari o'rtasidagi tafovut butun inson kapitalidan foydalanishning past samaradorligiga va mintaqaviy tizim amal qilish barqarorligining pasayishiga olib kelmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, klaster yondashuvi ishlangan innovatsion salohiyatdan samarali foydalanish imkonini beradi, chunki biznes (yirik, o'rta va kichik korxonalar shaxsida), ta'lim tuzilmalari (universitetlar, o'rta maxsus o'quv yurtlari, kollejlari, o'quv markazlari, tijorat o'quv markazlari), ilmiy tashkilotlar (fanlar akademiyasi, ilmiy-tadqiqot muassasalari) innovatsion faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini beradigan tubdan yangi munosabatlar shakllanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, biznes-tuzilmalar, ta'lim tuzilmalari va ilmiy tashkilotlarni ularni klasterlash dasturlari negizida integratsiyalash nafaqat iqtisodiy samaraga erishish, balki keltirilgan klaster unsurlarining o'zaro ta'siridan olinadigan sinergetik samara hisobiga mintaqada innovatsion barqarorligini oshirish imkoniyatini beradi. Bunday tashkiliy tuzilma inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishning barcha bosqichlarida uni permanent boshqarishni ta'minlaydi.

Umumjahon tendensiyasi shuni ko'rsatadiki, klasterlashtirish, raqobatbardoshlikning kuchayishi, innovatsion faoliyatning rivojlanishi va milliy iqtisodiyotning barqarorligi o'rtasida o'zaro bir-birini belgilash va o'zaro bog'liqlik mavjud. Ushbu dalilni mintaqalar qat'iy raqobatiga qarshi turish yangi usuli, ularning raqobatbardoshligini oshirish usuli va xo'jalik tizimlarini innovatsion barqaror rivojlantirish talablariga moslashtirish imkoniyati sifatida qarash mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, klaster yondashuvini rivojlantirish va keng foydalanish klaster birlashmalari mazmunining o'zgarishiga, ularning tarkibiga, ushbu birlashmalar shakli va maqsadli qurilmalariga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa pirovardida klaster yondashuvining yangicha mazmunini boyitadi va to'ldiradi. Inson kapitali boshqaruvi uchun milliy innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta'lim klasteridan foydalanish vositasi sifatida taklif qilinadi. Yagona klaster boshqaruvi biznes ehtiyojlari, fan va ta'lim imkoniyatlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2019-yil 8-oktyabr, PF-5847-son “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-may, PF-82-son “Oliy ta’lim muassasalari talabalariga ta’lim kreditlari berish tartibini takomillashtirish chora -tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni
3. Ruziev, K. Financing higher education in Uzbekistan: Trends and challenges. Springer Journal of Asian Economics
4. Kushakova M.N., Sharipov O’.H. “Oliy ta’lim muassasalarida fan va ishlab chiqarish integratsiyasi klasteri” "Экономика и социум" №4(119)-2 2024

